

PARFIYA DAVLATINING HUDUDI KENGAYISHI VA YUKSALISHI XORIJIY TADQIQOTLAR NIGOHIDA

Rahimjonov Fayozbek Mirkomil o'g'li

Farg'ona davlat universiteti talabasi

rahimovfayozbek08@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Salavkiylar davlatidan ajralib chiqqan Parfiyaning hududining kengayishi, rivoj topishi, savdo munosabatlari, Rim imperiyasi bilan dastlabki munosabatlarning tarkib topishi, boshqaruv aparating yo'lga qo'yilishi kabi masalalar xorijiy tadqiqotchilarning asarlari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Salavkiylar, Parfiya, satrap, Iskandar ahamoniylar, savdo.

ABSTRACT

In this article, issues such as the expansion of the territory of Parthia, which separated from the Seleucid state, its development, trade relations, the structure of its initial relations with the Roman Empire, and the establishment of the administrative apparatus are analyzed based on the works of foreign researchers.

Key words: Seleucids, Parthia, satrap, Alexander Achaemenids, trade.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Hozirgi globallashgan zamonda tarixning turli masalalarini o'rganish ustuvor masala sifatida talqin qilinmoqda, xususan tarixiy tajribalarning keng miqiyosda bilish, ulardan kerakli xulosalarni chiqarilishi esa o'z navbatida ushbu soha vakillari uchun eng kerakli unsur hisoblanadi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada, olis va yaqin o'tmishimizdagi ko'pgina voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda" – deb ta'kidlaydi[1:464]. Darhaqiqat Parfiya davlatining tashkil topishi hamda rivojlanish bosqichlarida o'zbek tarixini ham bezab o'tganligi ushbu ishning dolzarb hamda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Ushbu ilmiy ishimiz doirasida biz Xorijiy adabiyotlarning ayrim nashrlaridan foydalangan holda mavzuyimizning mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz hamda ish doirasida asosan o'zbek o'quvchilari uchun holisona fikrlarimizni taqdim etib boramiz. Mavzuning mohiyatini ochishda asosan Oxford University press nashri tomonidan tavfsiya etilgan mavzuga oid adabiyotlardan foydalanamiz.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Miloddan avvalgi taxminan 170-138/137-yillarda Parfiya podshohi Mitridat I salavkiylarning sharqiy satrapiyalari va Yunon-Baqtriya podsholigining bir qismini (miloddan avvalgi taxminan 136-y,) bosib olgan. Miloddan avvalgi 1-asr boshida Parfiya qudrati yanada ortib, Rim imperiyasining xavfli raqibiga aylangan. Endi esa qudratli qo'shin va iqtisodiy kuchga ega bo'lgan Parfiya Rim bilan to'qnashishi muqarrar bo'lib qoldi. Miloddan avvalgi 53-yil Parfiya Rim bilan to'qnashib, Karri jangida Krase qo'mondonligi ostidagi Rim qo'shinini tamoman tor-mor etgan. Miloddan avval 40-yilda Parfiya Kichik Osiyoning deyarli butun hududini, Suriya va Falastinni zabt etgan. Bu Rimning Sharqdagi hukmronligiga tahdid solmoqda edi. Miloddan avval 39 -37-yillarda rimliklar bu viloyatlar us-tidan o'z hukmronliklarini tiklashgan. Tez orada Parfiya ichki nizolar va ko'chmanchi alanlarning hujumlari natijasida tanazzulga uchrash boshlagan. Bundan foydalangan rimliklar Parfiya g'arbiy viloyatlarini qattiq talon-toroj qilgan. Parfiyaliklar vaqtvaqti bilan rimliklar ustidan g'alaba qozonib turgan bo'lsalarda, davlatni siyosiy tushkunlikdan qutqarib qololmaganlar. Marg'iyona, Sakaston, Girkaniya, Elimaida, Fors, Xarakena, Xatra shahri amalda mustaqil edilar. Tashqi va ichki nizolar mamlakatni holdan toydirgan. 224-yil vassal Fors (Persida) viloyati hokimi Ardashir (qarang Ardashir I) hal qiluvchi jangda Arta-bon V ni Ormizdagon tekisligida mag'lub etib Parfiya davlatini tugatgan; Parfiya asoschisi Ardashir I bo'lgan. Sosoniylar davlatiga qo'shib yuborilgan[2:15].

Rim kabi kuchli davlat bilan teglasha oladigan darajadagi ushbu harakatlar, shubhasiz Parfiyaning yuksak darajadagi davlatlar qatoriga kirganligini anglatadi. Tabiiy ravishda jangovor salohiyat, keng hududlarni zabt etib ko'plab pul massalariga ega bo'lish uning kuchiga kuch qo'shgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Mesopotamiya orqali shimoldan sharq va g'arbga o'tadigan serdaromad ipak yo'llarini boshqargan parfiyaliklar ham savdo bilan doim shug'illanganlar. Aynan shu jihat imperiyaning iqtidosiyatini mustaxkamlash bilan birga ularning mintaqadagi gegemonlik maqomini ta'minlagan. Bundan tashqari, hukmron sinf yuqori darajadagi hashamatga ega bo'lsa-da, rassomlar va hunarmandlarga bo'lgan talabni keltirib chiqargan bo'lsa-da, ular mavjud infratuzilmani yaxshilashga va yangisini qurishga

sarmoya kiritdilar. Bu esa qurilish qurilish materiallariga bo'lgan talabni va me'morlar, quruvchilar va tosh ustalarga bo'lgan ehtiyojni yuqori ekanligini anglatadi. Tabaqalarning yuqori mavqei kommunal va hashamatli tovarlarga o'z talabini yuzaga keltirgan bo'lsa-da, bunday mavqe ularning oilalari uchun moddiy farovonlik olib kelgan edi[3:120].

Parfiyaning davlat boshqaruvi uchta - ahmoniyalar, ellinistik va ko'chmanchi parn qabilalari an'analariga asoslangan edi. Oliy hokimiyat podsho qo'lida bo'lib, podsholik qilish huquqi faqat Arshakiylar urug'iga berilgan. Podsho huzurida ikkita qarindoshlar kengashi hamda zardo'shtiy kohinlari va saroy zodagonlari kengashi faoliyat ko'rsatgan. Birinchi kengash ko'chmanchi parn qabilalari an'analarini aks ettirib, davlat boshqaruvida katta rol o'ynagan. Muhim davlat masalalarini hal etishda Moguston (Avestoda zardo'shtiy qohinlarining oliy kengashi ma'nosida eslatiladi) deb nomlangan qo'shma kengash o'tkazilgan. Manbalarda Arshakiylar saroyidagi «paxrakpat» - saroy qo'riqchilari boshlig'i, «arkpat» - qal'a boshlig'i kabi unvonlar eslatiladi[4:35].

Pliniy va Isidor Xarakskiy ma'lumotlariga ko'ra, Parfiya 18 ta satraplikka bo'lingan. Ahmoniyalar satrapiyalaridan farqli o'laroq, Parfiya satrapiyalari ancha kichik bo'lgan. Bu ma'muriy okruglarning boshqaruvchilari satrap atalib, podsho tomonidan tayinlangan. Satrap faqat podshoga bo'ysunib, o'zining boshqaruv apparatiga ega bo'lgan[5:65].

Eski Nisodan topilgan parfiya hujjatlarida satrap Kofezat, otliq qo'shinlar qo'mondoni Tiridat va xazinabon eslatib o'tiladi. Davlat boshqaruvida avtonom shaharlarning ahamiyati katta bo'lgan. Bunday shaharlar davlatning g'arbida, asosan, Mesopotamiyada joylashgan. Isidor Xarakskiy 20 ta shunday shahar haqida ma'lumot beradi. Ularning ko'pchiligi salavkiylar, ayrimlari parfiyaliklar tomonidan boshqarilib, ko'pincha avtonom huquqlarga ega bo'lgan. Ularda yunonlar, semitlar, eroniylar, parfiyaliklar yashaganlar[5:15].

Niso (Turkmaniston) shahridan topilgan hujjatlar (xumlarga bitilgan) Parfiya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida, arxeologik topilmalar esa Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm va Marg'iyona bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar haqida ma'lumotlar beradi. Parfiya qishloq xo'jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Pompey Trog ma'lumotlariga ko'ra, "Parfiyada qullar ko'p edi, qullarni ozod qilish davlat tomonidan man qilingan edi. Butun Parfiyada qullar mehnatidan sug'orish inshootlarini qurish maqsadida keng foydalanilgan". Mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq ishlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Parfiya davlati besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoyning G'arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qilgan[6:89]

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Yuqorida aytilgan ma'lumotlarga nazar solar ekanmiz Parfiyaning jangovor salohiyatining yuqori ekanligi, yon qo'shnilari bo'lmish Salavkiylarning allaqachon zaiflashib qolganligi ularning hududiy jihatdan keng qamrovli siljishiga olib keldi. Keng hududlarni bosib olish esa yuqori darajadagi iqtisodiy o'sishga olib keladi. Iqtisodiy barqaror davlat esa yanada ko'proq harbiy harajatlarni amalga oshirib, harbiy harakatlarni amalga oshiradi. Yuqori harbiy harakatlarni, qo'shinning kuchi yuqoriligi esa o'z navbatida mintaqada uning pozitsiyasini belgilovchi omil hisoblanadi. Shuningdek geogiyosiy nazariyada bevosita savdo hududlarining nazorat qilinishi ham katta ro'l o'ynaydi. Chunki hayotiy faoliyatni tarbibga soluvchi harakatlantiruvchi kuch bu – albatta iqtisod ya'ni savdo. Savdo faoliyatining xususan Buyuk ipak yo'li savdo nuqtalarining qo'lga olinishi esa uning kuchiga kuch qo'shgan. Shuningdek Parfiya "Ahamoniy" an'anasiga sodiq qolgan xolda boshqaruv faoliyatini amalga oshirib, Ahamoniylar tuzganidan beri amalda saqlanib kelayotgan satrap boshqaruv tizimini o'zida saqlab qoldi. Bu an'anaga Iskandar ham, uning strategisi bo'lmish Salavka ham amal qilgan edi. Andazalarning turli ekanligiga qaramay mamlakat kuchli davlatlar qatoriga qo'shila bildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev, Sh.M.(2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. O'zbekiston.
2. Curtis, V.S.(2007). The Iranian Revival in the Parthian Period. Tauris.
3. Mellor, R (2012). The Historians of Ancient Rome. Routledge.
4. Adalian, R.P.(2010). Historical Dictionary of Armenia. Scarecrow Press.
5. Bagnall, R.S.(2012). The Encyclopedia of Ancient History. Wiley-Blackwell.
6. Campbell, B.(2017). The Oxford Handbook of Warfare in the Classical World. Oxford University Press.
7. Chahin, M.(2018). The Kingdom of Armenia. Routledge.
8. Hornblower, S. (2012). The Oxford Classical Dictionary. Oxford University Press.